

O'SMIR YOSHLARDA KOMPYUTER SAVODXONLIGINI OSHIRISH MASALALARI.

Aminova Navbahor Tolib qizi

*G'ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi
informatika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, o'smir yoshlarda kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari haqida so'z borgan.

Аннотация: В данной статье говорится о важности использования современных компьютерных технологий, способах эффективного использования компьютерных технологий наряду с профессиональными компетенциями среди подростков.

Abstract: This article discusses the importance of using modern computer technologies, as well as ways for adolescents to effectively use computer technologies, along with professional competencies.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompyuter texnologiyalari, sun'iy intellekt, interaktiv metodlar.

Key words: competence, computer technologies, artificial intelligence, interactive methods.

Ключевые слова: компетентность, компьютерные технологии, искусственный интеллект, интерактивные методы.

Kompetensiya (lotincha "competo" so'zidan olingan bo'lib, "erishaman, muvofiqman, mos kelaman" ma'nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi.

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bugungi kunda data science, sun'iy intellekt kabi tushunchalar, dasturlar hayotimizga tobora kirib bormoqda. Har bir zamonaviy kasb egasi, xususan, kompyuter

texnologiyalari sohalarida mutaxassis bo'lib yetishayotgan mutaxassislardan yuqoridagi dasturlarni samarali qo'llay olish, ulardan mohirona foydalanish talab etiladi. Mazkur natijalarga zamonaviy ta'lim metodlarga suyangen holda amalga oshiriladi.

Insert metodi yangi matn bilan ishlashga mo'ljallangan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Matnni qo'lda qalam bilan o'qib chiqish.

2. O'qish davomida matnda maxsus belgilar qo'yib borish:

+ *buni bilaman;*

- *buni bilmas edim;*

? *buni mukammal bilmoqchi edim;*

3. Matn bilan to'la tanishib chiqilgandan so'ng quyidagi jadval tuldirliladi:

Insert tenologiyasining jadvali

Buni bilar edim	Buni bilmas edim	Mukammal bilishni hoqlay
+	=	?

B

esh minutlik essay: yozma vazifaning ushbu turi dars oxirida qo'llaniladi.

Uning maqsadi

o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bilimlariga xulosa yasash bo'lsa, o'qituvchi uchun o'quvchilari ongida nimalar ro'y berayotganligini bilishdan iborat. O'quvchilardan quyidagi ikki vazifani bajarish so'raladi:

- mazkur mavzu bo'yicha nimalarni bilib olganliklarini va o'zlari javob ololmagan biror savolni yozib berish.

O'qituvchi yozma ishlarni darhol yozib oladi, keyinchalik esa, ularni tahlil etib, uning natijalaridan keyingi darsni rejalashtirishda foydalanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. THE ROLE OF EDUCATION IN ECONOMIC DEVELOPMENT: A THEORETICAL PERSPECTIVE. Ilhan OZTURK. Journal of Rural Development and Administration, Volume XXXIII, No. 1, Winter 2001, pp. 39-47.

2. Xudoynazarovich, S. A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI.

3. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.

4. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. Gospodarka i Innovacje., 48, 715-720.

5. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

6. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. Gospodarka i Innowacje., 46, 620-627.

7. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 8-14.

8. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology, 3(5), 15-21.

9. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Gospodarka i Innowacje., 51, 191-195.

